


LIFELONG LEARNING

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC THEORETICAL AND METHODOLOGICAL JOURNAL



2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz



**“LIFELONG LEARNING”
ILMIY-NAZARIY VA METODIK
JURNAL**

**“ LIFELONG LEARNING ”
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ
ЖУРНАЛ**

**“LIFELONG LEARNING”
SCIENTIFIC-THEORETICAL AND
METHODOLOGICAL
JOURNAL**

№ 1, 2025



QO'SHIQ O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

Umurova Ma'rifat Yoshievna

Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası o'qituvchisi
(m.y.umurova@buxdu.uz)
90-512-18-45

Anotatsiya: Maqolada musiqa va milliy san'atning yosh avlodni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashdagi o'rni, ayniqsa, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati, o'zbek xalqining an'analari, musiqa san'ati va qo'shiqchilik san'ati orqali yoshlarni yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik va axloqiy fazilatlar bilan tarbiyalash jarayoni haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Milliy madaniyat, vatanparvarlik, musiqa san'ati, yosh avlod, ma'naviy tarbiya, o'zbek xalq musiqasi, milliy qadriyatlar

Аннотация: В статье рассматривается роль музыки и национального искусства в духовно-нравственном воспитании молодежи, особенно в контексте воспитания в духе патриотизма. Описывается процесс воспитания молодежи через традиции узбекского народа, музыкальное искусство и искусство пения с целью формирования высоких духовных, патриотических и моральных качеств.

Ключевые слова: Национальная культура, патриотизм, музыкальное искусство, молодежь, духовное воспитание, Узбекская народная музыка, национальные ценности.

Annotation: The article examines the role of music and national art in the spiritual and moral education of young people, especially in the context of fostering patriotism. It describes the process of educating the youth through the traditions of the Uzbek people, musical art, and the art of singing, with the aim of developing high spiritual, patriotic, and moral qualities.

Keywords: National culture, patriotism, musical art, youth, spiritual education, Uzbek folk music, national values.

Respublikamiz taraqqiyoti va o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarni har tomonlama komil topishi davr talabi va ehtiyojidir. Jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ma'naviy yangilanishlar, ilm-fan va texnologiyalardagi yutuqlar zahirida sog'lom fikrli, vatanparvar, ma'rifatli avlodni shakllantirish masalasi turibdi. Shu bois, o'quvchi-yoshlarni nafaqat bilimli, balki yurtga sadoqatli, o'z xalqining urf-odatlarini, an'analari, musiqiy madaniyatiga hurmat bilan qaraydigan insonlar qilib tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifasidir.

Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z mustaqil Vatanimizdan faxrlanish tuyg'usiga boy shaxslar qilib tarbiyalash zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli, ko'p yondashuvli muammolardan biri sanaladi. Tarbiyaning samarali kechishi uchun har

bir pedagog, ayniqsa, musiqa o'qituvchisi o'z faoliyatini chuqur anglamog'i, xalqona ruhta yondashmog'i lozim.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o'zida axloqiy poklik, ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Har bir bola qalbida insoniylik, yurtparvarlik, mehr-oqibat, fidoyilik, or-nomus kabi tuyg'ularni shakllantirish lozim. Bu jarayonda musiqa san'ati, ayniqsa, xalq qo'shiqlari, allalar, mehnat ashulalari, doston va termalar alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, bunday asarlar xalq ruhiyati va tarixi bilan uyg'unlashgan bo'lib, yosh avlodga ta'sirchan tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Bu fan orqali nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalar beriladi, balki estetik did, milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat, ma'naviy yetuklik ham shakllantiriladi. Hozirgi davrda musiqa va umuman san'atning inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. San'at vositasida berilgan tarbiya yurakka tezroq yetib boradi, bu esa tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Qo'shiq o'rgatish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari, ayniqsa, maktab davridagi yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar qo'shiq kuylash orqali nafaqat kuy va ohangni, balki qo'shiq matnidagi ruh, mazmun, g'oyaviy yo'nalishni anglaydilar. Bu esa ularning hayotiy pozitsiyasini, fuqarolik ongini, milliy g'ururini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi. Ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va musiqiy-estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Xususan, vatanparvarlikni shakllantirishda ona allasi muhim ahamiyatga ega. Allalarning zamirida milliy madaniyat, mafkura va ma'naviyat yotadi. Ular bola qalbiga go'yo ohang bilan ezgulikni singdiradi, qalbni poklaydi, ongni uyg'otadi.

Buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Muhammad Bobur, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy singari allomalar ham musiqaning inson tarbiyasidagi o'rniga yuksak baho berganlar. Ularning asarlarida musiqa nafaqat san'at turi, balki inson ma'naviyati va tafakkurini yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin etilgan. Bugungi kunda ham bu qadriyatlar yangidan-yangi ma'naviy va tarbiyaviy maqsadlarda faol qo'llanilmoqda.

Qo'shiqchilik san'ati o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning musiqiy-estetik tarbiyasidagi eng kuchli vositalaridan biridir. Kuy, musiqa, ashula matni, ijrochi mahorati uyg'unlikda insonga har tomonlama ta'sir qilishni ta'minlaydi. Kuy va uning musiqiy ifodasi insonning hissiyotiga, matn esa uning sezgilari va ongiga ta'sir etadi. Qo'shiqchilik san'ati o'zbek xalqining barcha qatlamlariga singib ketgan bo'lib, u xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Xalqimizning quvonchi, hasrati, orzulari, ijtimoiy hayoti qo'shiqlar orqali aks etgan.

O'zbek xalq kuy va qo'shiqlari shunchalar xilma-xilki, ular orqali bolalarni ma'naviy va axloqiy dunyosini har tomonlama o'stirish, oliyanob fazilatlarini kamol toptirish mumkin. Bunday asarlarga misol qilib "Alla", lapar, lirik termalar,

bolalar qo‘shiqlari, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Sumalak”, “Lolacha”, “Boychechak”, “Laylak keldi”, “Sust xotin”, mehnat qo‘shiqlari, katta ashula, lirik, epik qo‘shiqlar, mumtoz asarlarni aytib o‘tish mumkin. Bu qo‘shiqlarning har biri ma’lum bir qadriyat, g‘oya, urf-odat, mehnat, mehr-oqibat, jamiyatga munosabat, tabiatga muhabbat kabi mavzularni qamrab oladi.

Jumladan, “Boychechak”, “Navro‘z” qo‘shiqlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni dars jarayonida tahlil qilish, sahnalashtirish, guruhlar bilan ashula ijrosi orqali bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilar ongida milliy musiqaning qadriyatli ohang ekanligini chuqur anglashga xizmat qiladi.

“Boychechak”

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayroni.
Ayroningdan bermasang
Qozon-tovog‘ing vayroni.

Naqarot:

Qattiq erdan qatrab chiqqan boychechak.
Yumishoq erdan yumalab chiqqan boychechak.
Boychechagim xilloli ,
Hamyon-hamyon tilloli,
Hamma bozor bir bozor,
Atroflari lolazor.

Naqarot:

Boychechakni tutdilar,
Sim yog‘ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar
Baxmal bilan yopdilar.

Naqarot:

Qattiq erdan qatrab chiqqan boychechak,
Yumishoq erdan yumalab chiqqan boychechak.
Bola-bola,bola-bola,bola-bola,bola-bola boychechak,
BOY-CHE-CHA-A-K!

“Navro‘z”

Boychechak chiqibdi bu kun Navro‘z ekan.
Hamal keldi, Navro‘z degan farmon keldi,
Baxor sepi gullar xirmon-xirmon keldi.
Momojonlar sumalakni pishiringlar,
Dilda quvonch, labda kulgi-xandon keldi.
Yoki,
Boychechak chiqibdi bu kun Navro‘z ekan,
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan.
Hamma bir-biriga jigar so‘z ekan-o,

O‘zbek xalq qo‘shiqlari mehnatkash xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og‘zaki tarzda – og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga

o'tib kelgan bebaho madaniy merosdir. Ular xalqning tarixiy xotirasi, hayot tarzi, orzu-umidlari va qalb ohangini o'zida mujassam etgan bo'lib, hozirgi kunda ham o'z qadri va muxlislarini yo'qotmagan. Xalq qo'shiqlari milliy musiqamizning zamini, asosiy manbai hisoblanadi. Ular orqali yoshlarga milliy o'zlik, tarixiy xotira, madaniyatga bo'lgan hurmat tuyg'ulari singdiriladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi esa axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi. Hadisi sharifda "Vatanni sevmok – iymondandir" deb bejiz aytilmagan. Bu hikmatli so'z har bir pedagog, har bir ota-ona, har bir fuqaroga katta mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, maktab ta'limida, aynan musiqa darslari jarayonida qo'shiq o'rgatish orqali Vatanga bo'lgan muhabbat, faxrlanish, xalqimiz yutuqlari bilan g'ururlanish, uning ravnaqi yo'lida halol xizmat qilish, fidoiy bo'lish kabi yuksak insoniy fazilatlar shakllantiriladi.

O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish nafaqat musiqa darslari orqali, balki sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar vositasida ham amalga oshiriladi. Masalan, "Ilhom chashmalari", "O'zbekiston – Vatanim manim" kabi qo'shiq tanlovlari, "Tarixning so'zi – qadriyatning o'zi" nomli sumalak sayli, "Qadriyatlaring boqiy bo'lsin, Navro'z!" shiori ostida o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali bolalarda Vatanga daxldorlik, tarixga hurmat, xalqona qadriyatlarga mehr singari tuyg'ular mustahkamlanadi.

Vatanparvarlik deganda, avvalo, ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, ardoqlash va uning ravnaqi uchun g'amxo'rlik qilish tushuniladi. Bu tushuncha shunchaki hissiy holat emas, balki shaxsning ichki ma'naviyati, axloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligining ifodasidir. Vatanparvarlik jamiyatimizdagi barcha kishilarni, millat va elatlarni birlashtiruvchi muhim omil ekanligi hammaga ayon. "Vatan" so'zi arabcha bo'lib, "ona yurt" ma'nosini anglatadi. Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan zamin, ajdodlar tug'ilib-o'sgan joy, uning ijtimoiy muhitdagi mavjudligi va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir.

Demak, Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun harakat qilish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, boyitish – bularning barchasi vatanparvarlik tushunchasining tarkibiy qismlaridir. Vatanparvarlik bu – ota-bobolarimizdan meros qolgan zaminni sevish, yurtning o'tmishi va kelajagiga befarq bo'lmaslik, xalq urf-odatlari, musiqasi, adabiyoti, tarixi, madaniyatini chuqur anglash va ardoqlash demakdir.

Vatanparvarlik g'oyalarini o'quvchilar ongiga singdirish oiladan boshlanadi. Bu jarayon ona mehri, ota ibrati, bobolar o'giti, ustozlar namunasi orqali mustahkamlanadi. Har bir o'qituvchi, xususan musiqa fanidan dars beruvchi pedagog uchun bu muqaddas burch hisoblanadi. Zero, musiqa vositasida o'quvchilarning qalbiga tez va kuchli ta'sir o'tkazish mumkin.

Musiqa tarbiyasi – inson qalbiga go'zallik, ezgulik va Vatanga muhabbat urug'ini sochuvchi qudratli vosita hisoblanadi. Aynan musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchilar bolalikdan ona Vatanga sadoqat, Vatan oldidagi burchni anglash, ajdodlarga hurmat bilan qarash kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar bilan tanishadilar. Bolaning qalbida ilk bora shakllanadigan "Vatan" tuyg'usi ko'pincha

ona allasi, bolalar qo'shiqlari, radio va televideniya orqali eshitilgan musiqiy ohanglar bilan bog'liq bo'ladi.

Shu jihatdan qaralganda, radio, televizor, kino, mumtoz filmlar, teatr, musiqiy mashg'ulotlar, konsertlar orqali beriladigan musiqiy axborotlar bolalar tafakkurini, dunyoqarashini boyitadi. Musiqa madaniyati darslarining asosiy vazifasi – yosh avlodni axloqan pok, vijdonli, vatanparvar va barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Bu vazifa nafaqat dars mashg'ulotlarida, balki sinfdan tashqari ishlarda, musiqa klublari va to'garaklar faoliyatida ham keng amalga oshiriladi.

O'quvchilar dars davomida kuy va qo'shiqlarni tinglab, ularni kuylabgina qolmay, balki ularning mazmun-mohiyatini anglaydilar, musiqiy tasvirlar orqali Vatanga nisbatan chuqur his-tuyg'ularni shakllantiradilar. "Vatan osmondan boshlanadi", "Ona yurti – mehri qiyoshi" kabi badiiy obrazlar orqali yoshlarda estetik did, milliy g'urur, vatanparvarlik kabi tuyg'ular ildiz otadi. Bola ulg'aygan sari vatan haqidagi tasavvurlari kengayadi, chuqurlashadi, bular esa yoshda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Yoshlarni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashda qo'shiq san'atidan foydalanish zarurligini yana bir bor ta'kidlash joizki, xalq – tarixning harakatlantiruvchi kuchidir. Har bir xalq o'z san'atini, shu jumladan, musiqa san'atini ham tarixiy tajriba, hayotiy donolik, axloqiy poklik, ijtimoiy munosabatlar asosida yaratgan. Shuning uchun ham xalq musiqa asarlari – bu oddiy kuy emas, balki xalq ruhiyati, orzusi, g'ami, quvonchi mujassam topgan boy ma'naviy boylikdir. Xalq qo'shiqlari, dostonlar, termalar, allalar, laparlarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, jasorat, sadoqat kabi fazilatlar go'zal musiqiy shakllarda ifodalangan.

Shunga ko'ra, madaniyat tarixida har qanday san'at turiga oid yuksak darajadagi asarlarning, xususan, qo'shiq ijro asarlarining yaratilgani bejiz emas. Ular millat qalbining zarurati bilan, xalq hayotining ehtiyojidan kelib chiqqan holda dunyoga kelgan. Ularni yosh avlod tarbiyasida qo'llash esa zamonaviy pedagogik fikrning dolzarb vazifasiga aylangan.

Bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri – yosh avlodni har tomonlama kamolga yetkazishdir. Bu vazifa esa faqat bilim berish bilan emas, balki tarbiyaning shakli, vositasi va usullaridan to'g'ri, tizimli foydalanish orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaga kompleks yondashish zarur: o'quvchining ongi, qalbi, hissiy olamiga bir vaqtning o'zida ta'sir etish kerak. Musiqa bu yo'lda eng kuchli vositalardan biridir.

Pedagogikada shaxsni uyg'un kamolga yetkazishdek murakkab vazifani bajarishda yordam beradigan har bir element muhim va ahamiyatlidir. Bu vazifani bajarishda tarbiyaning barcha sohalari – axloqiy, estetik, vatanparvarlik, mehnat, jismoniy va aqliy tarbiyalar o'zaro bog'liq holda olib borilishi lozim. Musiqa esa bu yo'nalishlarning barchasiga xizmat qila oladigan vosita bo'lib, inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etadi.

Shunday ekan, biz musiqa darslarida Vatan haqida qo'shiqlarni xalq musiqalaridan boshlab o'rgatib borishimiz maqsadga muvofiqdir. Vatan haqida kuylangan har bir qo'shiq – bu bolalarning qalbiga singdiriladigan milliy g'urur, tarixiy xotira, yurtga bo'lgan sadoqat ifodasidir. Har bir ota-ona, o'qituvchi,

tarbiyachi uchun yoshlarning ma'naviy tarbiyasi, milliy ruhda shakllanishi – Vatan oldidagi muqaddas burch hisoblanadi.

Bugun Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – o'sib kelayotgan yosh avlodning orzu-istaklariga mos, zamon talablariga javob beradigan, milliy qadriyatlarga tayanilgan ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishdir. Ta'limdagi yangilanishlar nafaqat bilim, balki ruhiy-ma'naviy jihatdan kuchli, o'zligini anglagan, jahon miqyosida o'zini topa oladigan barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Barkamol avlodni tarbiyalash esa – san'atning, ayniqsa, musiqaning imkoniyatlaridan foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda milliy istiqlol mafkurasi asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zero, istiqlol mafkurasi – bu yosh avlodni ruhiy-axloqiy jihatdan tayyorlash, ularning Vatanga sadoqatli, milliy g'ururga ega, kuchli shaxs sifatida voyaga yetishida hal qiluvchi omildir. Musiqa san'ati, ayniqsa, xalq musiqa asarlari, istiqlol mafkurasining asosiy mazmuniy g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishda muhim vositadir.

Farzandlarimizni tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat, Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning ijtimoiy faolligi, ilmga bo'lgan qiziqishi, vatanga bo'lgan munosabati aynan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati bilan belgilanadi.

Zamonaviy o'quvchilarga tarixiy mavzularni faqat kitob orqali emas, balki musiqa, tasviriy san'at, drama, madaniy tadbirlar orqali ham tushuntirish lozim. Chunki bu yondashuv yoshlar ongiga his-hayajon, ijobiy emotsiyalar orqali chuqurroq singadi. Shu bois, musiqa san'ati vositasida vatanparvarlik g'oyalarini yoshlarga yetkazish, ularni vatan tuyg'usi bilan tarbiyalash, ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan, ularda mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik, yurtparvarlikni kamol toptiradigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar musiqa madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analari bilan yaqindan tanishadilar. Bu esa ularning ongida o'zligini anglash, ajdodlar merosiga hurmat, yurtga sadoqat hissini mustahkamlaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasining dolzarbligi bugungi xalqaro vaziyatda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki har bir millatning kelajagi – o'z Vatani, xalqining tinchligi, taraqqiyotga erishishida faol ishtirok etadigan yosh avlodga bog'liq. Shuning uchun vatanparvarlikni bolalikdan boshlab, tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida shakllantirish muhimdir.

Vatanparvarlik deganda, avvalo, ona zaminga muhabbat, uni sevish, ardoqlash, uni asrab-avaylash va uni rivojlantirish uchun mas'uliyatli bo'lish tushuniladi. Bu tuyg'u har bir inson uchun ijtimoiy, ma'naviy va fuqarolik burchiga aylanmog'i lozim. Vatanparvarlik jamiyatimizdagi barcha insonlarni, millat va elatlarni birlashtiruvchi muhim g'oyaviy, axloqiy omildir. U mustaqillikni asrash, xalq

birdamligini ta'minlash, tinchlikni barqarorlashtirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy vatanparvarlik – bu o'zbek xalqining qoniga singib ketgan mehr, sadoqat, insof, shavqat, or-nomus, xalqparvarlik, insoniylik, adolat, halollik, mehnatsevarlik, yurtparvarlik kabi fazilatlarning yig'indisidir. Bu qadriyatlar faqat so'z bilan emas, balki san'at vositasida, ayniqsa, musiqa ohangi, kuyi, matni orqali yurakdan yurakka o'tadi. Shuning uchun, musiqa darslarida bu g'oyalarning mazmunini ochib berish, o'quvchilar qalbiga singdirish pedagogik yondashuvning muhim yo'nalishidir.

Umumiy ta'lim maktablarida vatanparvarlik tarbiyasi, ayniqsa musiqa ta'limining ajralmas va asosiy tarkibiy qismidir. Musiqa madaniyati fanining davlat ta'lim dasturida o'zbek xalq musiqasi namunalari tizimli va izchil tarzda berilgan bo'lsa-da, har bir darsda, har bir ohangda milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ona yurtga sadoqat tuyg'usi mujassam. Zero, xalqimiz yaratgan har bir kuy va qo'shiq yurakka chuqur singadigan, milliy ruhni uyg'otadigan ma'naviy boylikdir.

Bugungi kunda musiqa darslari nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi vosita, balki yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, faxr va g'urur tuyg'ularini uyg'otuvchi kuchli pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu boisdan musiqa madaniyati darslarida Vatan haqida yaratilgan xalq musiqalaridan boshlab zamonaviy vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlargacha bo'lgan asarlarni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa darslarining to'la va to'g'ri shakllanishi sinfdan tashqari mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirilgan taqdirdagina o'z samarasini beradi. Bunday mashg'ulotlarga musiqiy asarlarni tinglash, Vatan haqidagi qo'shiqlarni kuylash, tarixiy obidalarni ziyorat qilish, milliy bayramlar va musiqiy tadbirlarda faol ishtirok etish kiradi. Bu faoliyatlar orqali o'quvchilarda nafaqat musiqiy did, balki tarixiy ong, milliy g'urur, ijtimoiy faollik, Vatanga sadoqat singari tuyg'ular shakllanadi.

Vatanparvarlik tuyg'ularini o'quvchilar ongiga singdirish avvalo oiladan boshlanadi. Bola ilk bor ona allasi, mehribon onaning ruhi va ohanglari orqali Vatan bilan tanishadi. Shundan boshlab, bog'cha, maktab, ijtimoiy muhit va pedagogik tizim bu tuyg'uni chuqurlashtirib, mustahkamlab boradi. Bu murakkab, ammo nihoyatda muhim tarbiyaviy jarayon bo'lib, katta mehnat, mas'uliyat, sabr va donishmandlikni talab etadi.

Har bir ota-ona, bog'cha tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari va pedagogik jamoa zimmasiga bugun shunday muqaddas burch yuklatilmoqda: bolalarda Vatanga muhabbat, fidoiylik, milliy qadriyatlarga sadoqat, adolat, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlarni adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, tarix, teatr, kino vositalari orqali shakllantirish. Ayniqsa, musiqa bu borada yurakka tez yetib boruvchi, his-tuyg'uni uyg'otuvchi, xotirada muhrlanib qoluvchi vosita sifatida ulkan ahamiyatga ega.

Xulosa

Musiqa – bu inson qalbining tilidir. U orqali ifoda etilgan har bir kuy, har bir so'z yosh avlodning qalbida iz qoldiradi. Xalq qo'shiqlari, allalar, laparlar, termalar, zamonaviy vatanparvarlik ruhidagi ashulalar yoshlarning estetik didini

shakllantirish, ularni ezgu maqsadlarga yo'naltirish, Vatan va xalq oldidagi burchini anglashida katta o'rin egallaydi.

Qo'shiq o'rgatish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish – bu faqat dars vazifasi emas, balki keng qamrovli tarbiyaviy harakatdir. O'qituvchining har bir tanlagan qo'shig'i, bergan izohi, bergan vazifasi orqali o'quvchi shaxsida ma'naviy uyg'onish, milliy iftixor tuyg'ulari uyg'onadi.

Shu boisdan, bugungi pedagogik jarayonda musiqa ta'limi – bu shunchaki madaniy faoliyat emas, balki yurtga sadoqatli, ongli, mas'uliyatli, barkamol avlodni tarbiyalashdagi muhim omil sifatida qaralishi lozim. Har bir musiqa darsi – bu nafaqat kuy o'rganish, balki qalblarga Vatan tuyg'usini singdirish darsidir. Va bu dars – abadiy davom etadigan tarbiyaning yurakka yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2016 yil 8 dekabr

2. Juraev B. T., Abduraxmonova D. U. Esteticheskoe razvitie shkolnikov sredstvami uzbekskogo muzo'kalnogo folklora G'G'Vestnik Chuvashskogo gosudarstvennogo instituta kulturo' i iskusstv. – 2019. – №. 14. – S. 77.

3. Madayev O . O'zbek xalq og'zaki ijodi . – T . : Mumtoz so'z 2010

4. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent, 2008.

5. Olimov Sh. Sh. Duxovno-nravstvennye faktory uzbekskoy etnopedagogiki //BKB 74.48 R 76. – S. 85.

6. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs G'G'Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – T. 2795. – №. 546X. – S. 55.

7. Umurova Ma'rifat Yoshiyevna. Xalq qo'shiqlari va ularning tasnifi. Ilm sarchashmalari Ilmiy-nazariy, metodik jurnal 5/1-son (may 2024)

8. Yo'ldosheva S. Xalq urf-odatları va an'analari. –Toshkent: Ijod dunyosi. 2003.

9. Yoshiyevna U. M. Musiqa ta'limida bolalar folklor qo 'shiqclarini o 'rgatish pedagogik muammo sifatida Technical science research in uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 4. – S. 156-162.

10. M.Yo.Umurova. Vozmojnosti sovershenstvovaniya protsessa obucheniya uzbekskomu folklornomu tvorchestvu. Crednee professionalnoe obrazovanie SPO 5(345)`2024

11. Umurova. M.Y. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.// Ta'limda istiqbolli izlanishlar № 2/2025-yil, 216-220-betlar

12. Умурова М.Ё. Патриотические мотивы узбекского фольклора в годы войны //Сборник материалов XIX Международной научно-практической и культурно-исторической форуме профессорско-преподавательского состава

высших учебных заведений России, Таджикистана и Узбекистана. Душанбе-2025г. - 95-102 ст.

13. Умурова М.Ё., Жураева О.К., Народные песни как средство патриотического воспитания учащихся // NovaInfo.Ru (Электронный журнал.) – № 147, 2025 г. – с.237-239

PEDAGOGIKA OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MOLEKULAR FIZIKA KURSINI STATISTIK QONUNIYATLAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Xujanov Erkin Berdiyevich

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada molekulyar fizika kursini statistik qonuniyatlar asosida o'qitishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Statistik yondashuvlarning joriy etilishi talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, ularning mantiqiy, analitik va ehtimollik asosida fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'riladi. Shuningdek, kurs mazmunini takomillashtirishda o'qituvchining kasbiy malakasi, zamonaviy adabiyotlardan foydalanish hamda interaktiv metodlarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: molekulyar fizika, statistik qonuniyatlar, o'qitish metodikasi, nazariy bilimlar, analitik fikrlash, interaktiv yondashuv

Аннотация. В данной статье освещены научно-методические основы преподавания курса молекулярной физики на основе статистических закономерностей. Внедрение статистического подхода рассматривается как важный фактор в углублении теоретических знаний студентов и формировании у них логического, аналитического и вероятностного мышления. Особое внимание уделено значению профессиональной квалификации преподавателя, использованию современных источников и применению интерактивных методов.

Ключевые слова: молекулярная физика, статистические закономерности, методика преподавания, теоретические знания, аналитическое мышление, интерактивный подход

Annotation. This article presents the scientific and methodological foundations of teaching the molecular physics course based on statistical laws. The integration of statistical approaches is considered a key factor in deepening students' theoretical understanding and developing their logical, analytical, and probabilistic thinking skills. The article also emphasizes the importance of the teacher's professional competence, the use of modern literature, and the application of interactive teaching methods.

Keywords: molecular physics, statistical laws, teaching methodology, theoretical knowledge, analytical thinking, interactive approach

Molekulyar fizika kursini o'qitishda termodinamik va statistik usullar asosiy metodologik yondashuv sifatida qo'llaniladi. Termodinamik usullar makroskopik

MUNDARIJA

YASHIL UNIVERSITET: TA'LIM VA XAVFSIZ ATROF-MUHIT UYG'UNLIGI.....	4
<i>Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, Aslanova Nargiza Xakimovna</i>	
ZAMONAVIY TA'LIMDA INKLYUZIVLIK: ADOLAT, INSONPARVARLIK VA TENGLIK	10
<i>Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, Aslanova Nargiza Xakimovna</i>	
10-11-SINF O'QUVCHILARI BILAN O'TKAZILADIGAN MASHG'ULOTLARINING XUSUSIYATLARI, SHAKLLARI VA USULLARI.....	16
<i>Nurulloev Laziz Latipovich</i>	
YANGI O'ZBEKISTON, IJTIMOIIY SOHA RIVOJIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI	21
<i>Ahmadvova Zebiniso Shavkatovna</i>	
IMPROVING MECHANISMS FOR DEVELOPING INNOVATIVE ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS.	27
<i>Azimova Nasiba Ergashovna</i>	
“YORITGICHLARNING SUTKALIK KO'RINMA HARAKATLARI. YULDUZ TURKUMLARI” MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI.....	31
<i>Dadaboyeva Feruzaxon Olimjonovna</i>	
QO'SHIQ O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI .	41
<i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i>	
PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLEKULYAR FIZIKA KURSINI STATISTIK QONUNIYATLAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	49
<i>Xujanov Erkin Berdiyevich</i>	
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ И РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА.....	57
<i>Эльмуродова Зульфизар Зафаровна, Эрназарова Манзура Сапарбаевна</i>	
UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA “LIFELONG LEARNING – HAYOT DAVOMIDA O'QISH” TAMOIYILINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	63
<i>Hakimova Nargiza Supxonovna</i>	
TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA	